

AJDODLARIMIZ TOMONIDAN E'TIROF ETILGAN PEDAGOGIK NAZARIYALAR TUSHUNCHASI

Eminchayev Bahodirjon Sodiqovich
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola pedagogika tushunchasi haqida va pedagogik nazariyalarning kelib chiqish tarixi, uning taraqqiyotiga ta'sir qilgan ma'lum bir fikrlar va izlanishlar haqida so'z yuritadi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ta'lim, pedagogika, pedagogika tarixi, pedagog.

KIRISH

Tarbiya va ta'lim insoning mukammalik cho'qqisiga erishishi yo axloqiy tomonlama rivojlanib yetuk shaxs bo'lib yetshishiga muhim omil hisonlanadi. Inson yaxshi xulq-atvor bilan shakllanib borar ekan uning tafakkur qilish qobiliyati ham kengayib, jamiyatda ma'lum bir pog'onaga odimlaydi. Pedagogika ta'lim, tarbiya bilan uzviy bog'liqlikda qo'llanilib, bir-birini to'ldirib turadi. Avvalo pedagogika nima yoki pedagog kim degan savollar bizni o'ylantirishi tabiiy. Pedagogika yunoncha so'zdan olingan bo'lib "bola" va "yetaklayman" degan ma'nolarni bildiradi. Demak Pedagog esa "Bola yetaklovchi"dir. Ya'ni yosh avlodni tarbiyalashda hamda shu bilan bir qatorda ta'lim berishning tushunchalari, muammolarini hamda ko'nikma orttitirish tushuniladi. Nafaqat yosh avlodga balki har bir shaxsning kamol topib borishi, istiqlol g'oyalariga ega bo'lib, erkin va sof fikrlashiga zamin yaratadi. Demak, pedagogika bu jamiyatda aholini yoshlikdan barkamol bo'lishiga ta'lim tarbiyaning o'rnini ko'rsatib beradigan tushunchadir. Yurtimizda doimo ta'lim tarbiya tushunchasi muhim hisoblangani bois, turli tuman amalga oshirilayotgan islohotlar o'z isbotini ko'rsatadi. "Ta'lim- tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham o'zgartirish mumkin emas"¹ - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Birgina jumla insonning hayot sikliga qanday ta'sir o'tkazishi haqiqat. XXI asr zamonaviy texnologiyalar davri hisoblansa ham, hozirgi kunda jamiyat rivojida ham pedagogikaning o'ri kattadir. Shu sababli ham insonparvarlik demokratik, erkinn davlat qurilishing bosh tamoyili sifatida maydonga chiqadi.

Pedagogikaning kelib chiqich tarixi yunonistonga borib taqaladi. Ishchilar o‘z amaldor-u xo‘jayinlarining farzandlarini sayrga olib chiqib, yaxshi parvarishlab, extiyot qilganliklari uchun “pedagog” deb atalganlar. Ancha yillardan so‘ng bu tushuncha keng ma‘noda ishlatilib, ko‘plab bilimlarni egallagan o‘z kasbining mutaxassislariga nisbatan qo‘llanila boshlagan. Shunday qilib PEDAGOGIKA ning vujudga kelishi mana shu bosqichda amalga oshirilib, maxsus fan sifatida o‘rganilib, o‘rgatilib kelinmoqda. Bu tushuncha qadimdan mavjud ekan, demak albatta avval yashab o‘tgan olim-u ulamolar bu to‘g‘risida izlanishlar olib borishgan, ko‘nikmalar hosil qilib, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yozib kelajak avlod uchun muhim bo‘lgan o‘zlarining nazariyalarini qoldirishgan. Biz hozirgi kunda o‘rganadigan bilimlar ham aslida yetuk ajdodlarimiz tomonidan bayon etilgan. Bizning yurtimizdagi pedagogikaning dastlabki ildizlari “Avesto”, “O‘rxun-Enasoy” bitiklariga, Selung‘ur madaniy merosiga borib taqaladi. Avesto ta’limotidagi uch omil: Ezgu fikr, Ezgu so‘z, Ezgu amal tushunchasi ham kishilarning ko‘ngliga yovuz qarashlarni kirmasligi, doimo yaxshilik sari intilish mukammal yaatilgan insonga hosligi ko‘zda tutiladi. Milliy pedagogikaning taraqqiyotida islom dini va tasavvuf olamida axloq, komil inson shakllantirish bosh maqsad sifatida turadi. Aslida pedagogika fani barcha fanlar () bilan uzviy bog‘liqda o‘rganilib tadbiiq qilinadi. Abu Ali ibn Sino, buyuk mutaffakkir, tibbiyot ilmining ustozlari o‘zining “Tib qonunlari”, “Tadbir manzili” kabi asarlarida pedagogic mahoratga oid qarashlarini yozib qolgan. Masalan “Tadbiri manzil” asarida o‘qituvchining niyati pokiza, maqsadi bilib berish, bundan tashqari adolatli farosatli shu kabi xususiyatlarga ega bo‘lishini muhim deb bilgan. “Fozil odamlar shaxri”, “Baxt saodatga erishuv” nomli asarlar muallfi bo‘lmish bobomiz Abu Nasr Farobiy ham bu sohaga o‘zining teran nazariyalari bilan boyitgan. Ta’lim tarbiya berish usulini ikki turga bo‘lib bularni rag‘batlantirish va jazolash(ya’ni majbur qilish) degan fikrni olg‘a surgan. Darhaqiqat, muallim bir vaqtning o‘zida ham ta’lim olishni majbur qilib undan so‘ng qo‘llab quvvatlantirib kichik rag‘bat bilan mukofotlasa ko‘zlagan maqsadiga erishish yo‘li osonlashadi. Abu Rayxon Beruiy isnonni tabiatning bir qismi deb bilar edi, mohir pedagog ta’lim beruvchining barcha sohadan bir shingildan habari bo‘lishi lozimligini ta’kidlagan. Butun dunyo tan olgan bobomiz, buyuk mutaffakkir, shoirlarning sultoni bo‘lmish Alisher Navoiy ham o‘zining ahamiyatli bo‘lmish noyob asarlari bilan, falakiyot ilmi sohasida izlanishlar olib borgan mukammal dunyoqarash sohibi Mirzo Ulug‘bek ham o‘lmas san‘at asarlari bilan bugungi kungacha har bir sohada asosan pedagogikaga katta hissa qo‘shishgan. Avvalgi asrda ijod qilgan jadidchilik harakatining yorqin namoyondalari bo‘lmish Abdulla Avloniy , Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Muhammadsharif So‘fizoda kabi ko‘plab ajdodlarimizning qarashlari biz kabi yosh avlodga namuna bo‘lib kelmoqda. Ko‘rinib

turganidek, har bir adabiyotshunos-u olimlar bu fanga izlanishlaridan kelib chiqib katta hissa qo‘shishga harakat qilishgan.

XULOSA

Pedagogika insonning kamol topishida muhim bo‘lgan tushuncha deb qaralar ekan, har bir sohada albatta bu termin bilan yuzlashishi tabiiy albatta. Zero inson mukammalilik tarafdori bo‘lib o‘zida ta’limning ham tarbiyaning ham muhimligini bilishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. I.A. Karimov. Xalqimiz jipsligi - tinclilik va taraqqiyot garovi. Oliy Majlis XII sessiyasidagi ma’ruza // "Ma’rifat" gazetasi, 1998 yil, 29 avgust